

TERMINOLOGIK LUG'AT YARATISH TEXNOLOGIYASI VA UNING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Sapura Beknazarovna Sattarova

UrDU akademik litseyi aniq fanlar kafedrası
Informatika fani o'qituvchisi.

Feruza Xodjinazarovna Bekchanova

UrDU akademik litseyi aniq fanlar kafedrası
informatika fani o'qituvchisi

Akmal Kamaliddinovich Shermetov

UrDU akademik litseyi aniq fanlar kafedrası
informatika fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Barchamizga ma'lumki, globallashib borayotgan bugungi zamonda ta'lim jarayoniga bir qator zamonaviy atamalar jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Ayniqsa, texnologiya bilan bog'liq fanlarda bu holat ko'p kuzatiladi. Ushbu maqolada Informatika va Axborot texnologiya fanidan akademik litsey o'quvchilarning darsligi asosida Delphi dasturlash tili bobi bo'yicha terminologik lug'at yaratish masalasi ko'rib chiqilgan. Dasturlash tilini o'rganish jarayonida terminologik lug'atdan foydalanish – o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi va ta'lim sifatini oshiradi. Maqolada keltirilgan lug'at yaratish texnologiyasidan foydalanib barcha fanlar uchun terminologik lug'atlarni yaratish va ularni dars jarayoniga tadbiq etish o'quvchilarning sifatli ta'lim olishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Terminologiya, Delphi dasturlash tili, Sketch Engine, korpus, token, unikal so'z., translyator, kompilyator

ABSTRACT

We all know that in today's era of globalization, a number of modern terms are rapidly entering the educational process. This is especially true in technology-related topics. This article considers the issue of creating a terminological dictionary by chapters in the Delphi programming language based on the textbook of the academic lyceum students in the field of Informatics and information technologies. The use of a terminological dictionary in the process of learning a programming language accelerates the process of mastering a new topic by students and increases the quality of education. Creating

terminological dictionaries for all subjects using the technology of creating a dictionary presented in the article and applying them to the educational process is one of the important factors of students' acquisition of quality knowledge.

Keywords: Terminology, Delphi programming language, Sketch Engine, corpus, token, unique word, translator, compiler

KIRISH

Texnologiyaning jadal rivojlanishi va uning natijasidagi globallashuv jarayoni barcha jabhalarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. AKT sohasida ko'plab horijiy atamalar hayotimizga va ilm-fanga kirib kelmoqda. Bugungi kunda aloqa va axborotlashtirishning rivojlanishi texnologiyalari bizga Internetda deyarli barcha ma'lumotlarni, shu jumladan Internetda ko'rsatilgan elektron lug'atlarga kiritilgan atamalarning tushuntirishlarini tezda topishga imkon beradi. Bu lug'atlar soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Ma'lumki, til va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatdagi o'zgarishlar tilda o'z ifodasini topishi zarur. Shu nuqtayi nazardan terminologiya tilshunoslikning tez o'zgaruvchan va murakkab tuzilishga ega sohalaridan biri hisoblanadi. Har bir fan terminlar tizimihisoblanadi. Rus faylasufi P.A.Florenskiy terminlarning fandagi o'rnini quyidagicha izohlagan: "Fanning mohiyati terminologiyani tuzish, aniqrog'i, joy-joyiga qo'yishdan iborat... Terminlar hayoti fan tarixining o'zidir". Tilshunoslik ham o'z lingvistik terminlariga ega. Til ta'limiga lingvistik terminlar mohiyatini o'rganish asosida kechadigan jarayon sifatida qarash mumkin[2]. **Terminologiya** – "ma'lum bir fan, san'at, muallif yoki ijtimoiy guruhga tegishli texnik atamalar to'plami". Demak, terminologiya ma'lum bir soha uchun tegishli bo'lgan terminlarning izohli lug'ati hisoblanadi.

Delphi – Windows operatsion tizimida dastur yaratishga yo'naltirilgan dasturlash muhitidir. Delphida dastur tuzish zamonaviy vizual loyihalash texnologiyalariga asoslangan bo'lib, unda dasturlashning obyektga mo'ljallangan g'oyasi mujassamlashgan. Delphida dastur Turbo Pascal dasturlash tilining rivoji bo'lgan Object Pascal tilida yoziladi. **Delphi** – Windows muhitida ishlaydigan dastur tuzish uchun qulay bo'lgan vosita bo'lib, kompyuterda dastur yaratish ishlarini avtomatlashtiradi, xatoliklarni kamaytiradi va dastur tuzuvchi mehnatini yengillashtiradi. Delphida dastur zamonaviy vizual loyihalash texnologiyasi asosida obyektga mo'ljallangan dasturlash nazariyasini hisobga olgan holda tuziladi. 1995-2017 yillar oralig'ida Delphining 25 dan ortiq turi yaratilgan bo'lib, Ularning barchasida asosiy dasturlash tili **Object Pascal** bo'lsada, ko'pchiligida **C++**, **Assembler** da, oxirgi variantlarida **Java** da, ba'zi versiyalarida hatto **PHP** da ham dastur yozish mumkin. Oxirgi versiyalari **Windows** ilovalari bilan birga **Android** va **IOS** ilovalarini ham yaratish imkonini beradi.[1]

Delphi dasturlash tilining barcha xizmatchi so'zlari ingliz tilida bo'lgani sababli darsda yangi mavzuni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli ushbu maqola mualliflari tomonidan Delphi dasturining asosiy atamalaridan iborat terminologik lug'at yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tili terminshunoslik sohasining hozirgi darajasi, ilmiy qiymati bevosita rus hamda boshqa xalqlar terminshunoslarining ishlari bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, N.A.Baskakov, L.A.Bulaxovskiy, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy, D.S.Lotte, S.A.Chapligina, T.L.Kandelaki, V.P.Danilenko kabi o'nlab terminshunos olimlarning ishlari o'zbek terminshunosligining qaror topishiga o'zining katta hissasini qo'shdi.[6]

Turkiy xalqlar tilshunoslarining, jumladan, M.SH.Gasimov, B.U.Oruzbaeva, R.A.Urekenova, F.S.Faseev kabi olimlarning ishlari ham o'zbek terminologiyaning rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Ma'lumki, tilshunoslikning eng dolzarb, g'oyatda murakkab, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohasi terminologiyadir. XX asrning 30-yillari o'zbek tilining ko'plab terminologik lug'atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma'no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo'li va boyish manbalari haqida nazariy masalalari ham ishlab chiqildi.

Ulug' Tursunov, birinchilardan bo'lib, o'zbek tili terminologiyasi masalalariga oydinlik kiritishga harakat qildi va ushbu masalaga bag'ishlab asarlar yozdi: «Til-terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi», «O'zbek terminologiyasi masalalari», «Terminologiya masalalari», «O'zbek adabiy tilida so'z-terminlar tanlash prinsiplari» kabilar. Bu asarlarda terminlarni hosil qilish, to'plash, tartibga solish, unifikatsiyalash va nashr etish sohasidagi turli xil qarashlar va tushunchalar haqida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari, terminologiya sohasida ro'y bergan va ro'y berayotgan chalkashliklar yaqqol ko'zga tashlana boshlashi ta'kidlanadi. Masalan, bir tushunchaning turlicha atalishi va yozila boshlashi; aniq va ixcham terminlar o'rniga uzundan uzoq izohlarning berilishi; termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish; o'zbek terminologiyasini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish faktlari mavjudligi ko'rsatildi.

Prof. U.Tursunovning terminologiya masalalariga baqishlangan asarlarida ikki muammo alohida o'rin tutadi:

1. Terminlarning qo'llanilishi.
2. Terminologiyaning boyish manbalari.

Terminlar qo'llanilishi haqida fikr yuritar ekan prof. U.Tursunov ularni uch guruhga ajratib tahlil qiladi: a) bir sohada qo'llaniladigan terminlar; b) har xil sohada qo'llaniladigan



terminlar; v) termin ham oddiy soʻz sifatida qoʻllaniladigan terminlar.

Prof. U.Tursunov asarlarida oʻzbek tili terminologiyasining boyish manbalari batafsil yoritilgan. Oʻz asarlarida U.Tursunov oʻzbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanishi haqida maʼlumot beradi. Maʼlumki, oʻquvchilarning intellektual salohiyatiga mos boʻlgan darsliklarni yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir.[3]. Darsliklar uchun terminologik lugʻatlarning yaratilishi bu muammoning yechimini oson hal qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu qismda terminologik lugʻat yaratish xususida soʻz boradi. Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida lugʻat yaratish uchun avvalo qaralayotgan matnli obyektning elektron korpusi yaratilishi lozim. Buning bir qancha usullari mavjud. Shulardan eng zamonaviy va ommabop usullaridan biri Sketch Engine tizimidan foydalanishdir.


Sketch Engine – zamonaviy til oʻrganish, matnli korpuslarni tahlil qilish va korpus yaratish platformasidir. Bu usulda korpus yaratish bir qator qulayliklarga ega. Chunki Sketch Engine dasturi yordamida korpus yaratish orqali quyidagi imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

1. Word Sketch (soʻz va soʻz birikmalari)
2. Thesaurus (sinonim va oʻxshash soʻzlar, bu imkoniyat horijiy tillar ucun)
3. N-grams (2,3,4,5 grammlar)
4. OneClick Dictionary (avtomatik lugʻat tuzish)
5. Word Sketch Difference (ikkita soʻz birikmasini solishtirish)
6. Concordance (biror soʻzdan matnda foydalanish)
7. Wordlist (soʻzlarning chastotasi boʻyicha roʻyxati)
8. Keywords (terminlar)
9. Text Type Analysis (korpus boʻyicha umumiy statistika)

Quyida Sketch Engine yordamida korpus va lugʻat yaratish texnologiyasi bayon etiladi.



1-bosqich: Korpus yaratish uchun biror darslik yoki asar Internetdan yuklab olinadi. Qaralayotgan masala uchun <https://kitob.uz/>. saytidan Informatika fanidan akademik litsey 1-bosqich oʻquvchilarining asosiy darsligi[1]ni yuklab olinadi. u pdf formatdan txt formatiga oʻtkazildi, keraksiz joylari ochirib tashlanadi va bu matnli faylga dastlabki ishlov beriladi, yaʼni matndagi har xil belgilar va raqamlar oʻchirilib tashlandi.

2-bosqich. <https://www.sketchengine.eu/> URL manziliga kirib, Sketch Engine tizimidan roʻyxatdan oʻtiladi, 1-rasm, **NEW CORPUS (10)** buyrugʻi orqali (1-rasm) yuqoridagi txt formatga oʻtkazilgan fayl tanlanadi.



1-rasm. Sketch Engine platformasining umumiy ko'rinishi

3-bosqich: Yaratilayotgan korpus nomi va qisqacha izoh kiritiladi(2-rasm,a)



2-rasm, a, Korpusga tavsif berish oynasi

b) So'zlar ro'yxatini tanlash oynasi

2-rasm,(b) oynadan dastlab "all" va keyin "go" buyrug'i tanlanadi. Natijada ekranda so'zlarning matndagi chastotasi bo'yicha ro'yxati hosil bo'ladi (3-rasm)

Word	Frequency ? ↓	Word	Frequency ? ↓	Word	Frequency ? ↓
151 qaysi	32 ...	164 tform1	30 ...	177 aks	28 ...
152 satrda	32 ...	165 joylaymiz	30 ...	178 tugma	28 ...
153 ularning	32 ...	166 qizil	30 ...	179 rgb	28 ...
154 timer	32 ...	167 obyektning	30 ...	180 uchinchi	28 ...
155 saqlash	30 ...	168 memo	30 ...	181 yarating	28 ...
156 spinedit	30 ...	169 wzugartiramiz	30 ...	182 satri	28 ...
157 tugmani	30 ...	170 to	30 ...	183 oyna	28 ...
158 ilovada	30 ...	171 undan	30 ...	184 biz	28 ...
159 yaratamiz	30 ...	172 kodi	30 ...	185 eng	28 ...
160 yaratilgan	30 ...	173 operatori	30 ...	186 yoki	28 ...
161 lines	30 ...	174 qiladi	30 ...	187 rasmda	28 ...
162 taymer	30 ...	175 ellips	28 ...	188 20	28 ...
163 ishini	30 ...	176 bajaradi	28 ...	189 berilgan	28 ...



3-rasm. Sketch Engine oynasidagi chastotaga asoslangan so'zlar ro'yxatidan parcha



Keyin ushbu rasmdagi formatlardan biriko'rinishida so'zlar ro'yxati fayl sifatida yuklab olinadi. Ushbu formatlardan *.xlsx* formatini tanlash maqsadga muvofiqdir. Nihoyat, so'zlar ro'yxatining elektron ko'rinishdagi lug'ati yaratiladi.

Quyidagi 4-rasmda Informatika darsligining Delphi bobi bo'yicha so'zlar ro'yxati va so'zning matnda qatnashishi soni bo'yicha jadval keltirilgan

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L
Nº	So'z	Soni	Nº	So'z	Soni	Nº	So'z	Soni	Nº	So'z	Soni
1	bu	161	35	asosiy	36	69	uni	25	103	button	17
2	ilova	141	36	bosib	36	70	edit	24	104	integer	17
3	uning	116	37	agar	35	71	if	24	105	mavzu	17
4	uchun	108	38	kerak	35	72	ilovasi	24	106	operator	17
5	form1	90	39	kiritamiz	35	73	enabled	23	107	oynasida	17
6	mumkin	81	40	yordamida	35	74	foydalanish	23	108	rang	17
7	bilan	72	41	ilovani	34	75	ikkita	23	109	reja	17
8	boshqarish	71	42	obyekt	33	76	label	23	110	topshiriqlar	17
9	bir	68	43	bo'lsa	32	77	paydo	23	111	to'g'ri	17
10	bo'lib	64	44	ishga	32	78	unda	23	112	uyga	17
11	delphi	54	45	ular	31	79	xossalarini	23	113	bor	16
12	matn	50	46	button1	30	80	inttostr	22	114	dastlab	16
13	xossasi	48	47	ikkinchi	30	81	then	22	115	qaysi	16
14	yangi	48	48	dan	28	82	false	21	116	satrda	16
15	canvas	47	49	teng	28	83	oynasiga	21	117	spinedit1	16
16	dastur	47	50	ulardan	28	84	oynasining	21	118	timer	16
17	ham	47	51	vazifa	28	85	o'zgartirish	21	119	ularning	16
18	caption	46	52	begin	27	86	buning	20	120	xossa	16
19	ikki	46	53	da	27	87	ekranga	20	121	ilovada	15
20	image1	46	54	deb	27	88	faqat	20	122	ishini	15
21	marta	46	55	har	27	89	label1	20	123	joylaymiz	15
22	qanday	46	56	height	27	90	birinchi	19	124	kodi	15
23	bo'ladi	45	57	qiymati	27	91	butun	19	125	lines	15
24	obyekti	45	58	yana	27	92	esa	19	126	memo	15
25	unga	45	59	boshqa	26	93	kiritilgan	19	127	obyektning	15
26	xossalari	44	60	end	26	94	son	19	128	operatori	15
27	dasturlash	43	61	joylashgan	26	95	visible	19	129	qiladi	15
28	oynasi	42	62	kiritish	26	96	bosamiz	18	130	qizil	15
29	qilib	42	63	masalan	26	97	ekranda	18	131	saqlash	15
30	bo'lgan	40	64	obyektlar	26	98	font	18	132	spinedit	15
31	obyektining	40	65	text	26	99	nechta	18	133	taymer	15
32	tugmasini	39	66	bitta	25	100	rasmga	18	134	tform1	15
33	width	39	67	delphida	25	101	savol	18	135	to	15
34	quyidagi	38	68	uni	25	102	yaratish	18	136	tugmani	15

4-rasm. Yuklab olingan *.xlsx* formatli so'zlarning dastlabki 136 tasi ro'yxati

Ushbu 4-rasmdagi jadvalda soʻzlar matndagi qatnashish soni boʻyicha kamayish tartibida joylashgan. Roʻyxatdan koʻrishimiz mumkinki, bizning korpusimizda “bu” soʻzi 161 marta, “ilova” soʻzi 141 marta, “formal” soʻzi 90 marta qatnashgan va h.k

4-bosqich: Bu bosqichda MS Excel dasturining filtrlash funksiyasidan foydalaniladi. Bunda soʻzlar roʻyxatidagi terminlarni biror rang bilan belgilab olinadi. (5-rasm, a). Bu uncha koʻp vaqt talab qilmaydi, chunki, odatda yangi terminlar matnda kam ishlatiladi.

№	So'z	Soni
1	bu	161
2	ilova	141
3	uning	116
4	uchun	108
5	form1	90
6	mumkin	81
7	bilan	72
8	boshqarish	71
9	bir	68
10	bo'lib	64
11	delphi	54
12	Matn	50
13	xossasi	48
14	yangi	48
15	canvas	47
16	dastur	47
17	ham	47
18	caption	46
19	ikki	46
20	image1	46
21	marta	46
22	qanday	46
23	bo'ladi	45
24	obyekti	45

A	B	C	D
1	va	256	
2	Сортировка от А до Я	161	
3	Сортировка от Я до А	141	
4	Сортировка по цвету	116	
5		114	
6	Удалить фильтр из столбца "va"	108	
7	Фильтр по цвету		Фильтр по цвету ячейки
8	Текстовые фильтры		
9	Поиск		
10			Нет заливки
11	<input checked="" type="checkbox"/> (Выделить все)		
12	<input checked="" type="checkbox"/> 0	71	
13	<input checked="" type="checkbox"/> 1	68	
14	<input checked="" type="checkbox"/> 2	68	
15	<input checked="" type="checkbox"/> 3	64	
16	<input checked="" type="checkbox"/> 4	54	
17	<input checked="" type="checkbox"/> 0000ff	50	
18	<input checked="" type="checkbox"/> 00ff00	50	
19		48	
20		48	
21	xossasi	48	
22	yangi	48	

5-rasm, a) Terminlarning belgilanishi

5-rasm, b) Terminlarni MS Excel dasturida rang boʻyicha filtrlash

Keyin esa MS Excel dasturining

«Данные» menyusidagi «Фильтр» buyrugʻidan foydalaniladi. Buning uchun soʻzlar roʻyxati joylashgan B ustun tanlanadi va «Фильтр» => «Фильтр по цвету» buyrugʻi beriladi (5-rasm, b). Natijada ekranda quyidagi koʻrinishdagi, (5-rasm, c) faqat terminlardan iborat boʻlgan roʻyxat hosil boʻladi. Bu roʻyxat Word dasturiga nusxalab olinadi va atamalarga izoh yoziladi. Bu yerda (5-rasm, c) rang filtri asosida saralab olingan terminlar roʻyxatidan parcha keltirilgan

	A	B
3	ilova	141
7	form1	90
16	delphi	54
23	canvas	47
25	dastur	47
27	caption	46
29	image1	46
37	dasturlash	43
43	width	39
53	obyekt	33
57	button1	30
67	height	27
71	end	26
76	text	26
80	edit	24
81	if	24
83	enabled	23
91	inttostr	22
93	then	22
94	false	21

5-rasm, c) Saralab olingan terminlar ro'yxati


NATIJARLAR

Tanlab olingan Informatika darsligi bo'yicha Sketch Engine zamonaviy online platformasida hosil qilingan korpus orqali quyidagi statistik ko'rsatkichlarga erishildi.

Yaratilgan korpusning statistik ko'rsatkichlari. 1-jadval.

Jami tokenlar soni	Unikal so'zlar soni	Lug'atidagi terminlar soni	2 grammlar soni	3 grammlar soni	4 grammlar soni
10 588	2593	170	396	98	30 ta

2-grammlar– bu, matnli korpusdagi so'zlarning o'zidan keying so'z bila bog'langan ikkita so'zdan iborat jadvali



N-gram	Frequency ?	N-gram	Frequency ?	N-gram	Frequency ?			
1	ikki marta	64	18	ilova yaratamiz	24	35	bilan ishlash	16
2	va uning	62	19	matn satri	22	36	Agar bu	16
3	marta bosib	54	20	ilova yaratang	22	37	procedure TForm1	16
4	ga teng	42	21	then begin	22	38	bir nechta	16
5	boshqarish obyekt	40	22	tugmasini ikki	22	39	bir necha	16
6	ilova oynasi	38	23	Buning uchun	22	40	kerak bwladi	16
7	VA TOPSHIRIQLAR	34	24	dastur kodi	22	41	obyekti obyektlar	16
8	SAVOL VA	34	25	ilova oynasiga	20	42	jildida joylashgan	16
9	UYGA VAZIFA	34	26	ishga tushirib	20	43	ilova wz	14
10	paydo bwladi	32	27	vazifa bajaradi	20	44	ilova oynasining	14

6-rasm. 2 grammlar ro'yxatidan parcha

N-GRAMS Delphi

3-grams, word (items: 98, total frequency: 892)

N-gram	Frequency ?	N-gram	Frequency ?
1 ikki marta bosib	50	26 quyidagi rasmda kwratilgandek	8
2 SAVOL VA TOPSHIRIQLAR	34	27 standart jildida joylashgan	8
3 obykti va uning	32	28 to n do	8
4 boshqarish obykti va	28	29 ishga tushiramiz va	8
5 va uning xossalari	28	30 uchun yangi ilova	8
6 ga teng qilib	24	31 bu xossa qiymati	8
7 tugmasini ikki marta	22	32 xossasi qanday vazifa	8
8 qanday vazifa bajaradi	18	33 da yangi ilova	8
9 llovani ishga tushirib	18	34 llovani ishga tushiramiz	8
10 obykti obyektlar panelining	14	35 qiymatlarni qabul qiladi	8
11 yangi ilova yaratamiz	12	36 obyktining asosiy xossalari	8
12 ikki marta bosamiz	12	37 va uning xossalarini	8

7-rasm: 3 gramlar royxatidan parcha.

N-GRAMS Delphi

4-grams, word (items: 30, total frequency: 254)

N-gram	Frequency ?	N-gram	Frequency ?
1 obykti va uning xossalari	28	16 kursor turgan joyiga quyidagi	6
2 boshqarish obykti va uning	28	17 panelining standart jildida joylashgan	6
3 tugmasini ikki marta bosib	22	18 qaysi turdan qaysi turga	6
4 ga teng qilib olamiz	10	19 quyidagi rasmda kwratilgandek qilib	6
5 obykti obyektlar panelining qayerida	8	20 to n do begin	6
6 obyektlar panelining qayerida joylashgan	8	21 maculumotni qaysi turdan qaysi	6
7 Button tugmasini ikki marta	8	22 llovani ishga tushiramiz va	6
8 Delphi da yangi ilova	8	23 turdan qaysi turga wtkazadi	6
9 xossasi qanday vazifa bajaradi	8	24 uchun yangi ilova yaratamiz	6
10 obyektini ikki marta bosib	6	25 yana bir foydali xossasi	6

8-rasm: 4 gramlar ro'yxatidan parcha.

5- bosqich: Oxirgi bosqichda darslikning Delphi bobi bo'yicha 170 ta terminologik lug'at yaratildi. Quyidagi rasmda keltirilgan 132 ta si keltirilgan.

9-rasm. Delphi dasturlash tili bobi bo'yicha yaratilgan terminologik lug'at

	A	B
1	abzas	xatboshi
2	access	MS Office dasturi
3	Action Script	ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tili
4	add	qo'shish
5	additional	qo'shimcha
6	algoritm	biror masalani yechiishga qaratilgan muayyan amallar ketma-ketligi
7	android	telefonlar, planshetlar uchu operatsion tizim
8	animatsion	harakatli
9	application	ilova
10	arc	yoy
11	argument	funksiya qabul qiladigan qiymat
12	array	massiv(ketma-ketlik)
13	ASP	web dasturlash tili
14	assembler	dasturlash tili
15	autosize	o'lchamni avtomatik tanlash xossasi
16	avtomatlashtirish	jarayonni inson omilisiz boshqarish
17	Basic	dasturlash tili
18	bayt	axborot o'lchov birligi
19	boolean	mantiqiy ifoda, 0 yoki 1 raqamini qabul qiladi
20	brush	cho'tka
21	bsbDiagonal	cho'tkaning yon diagonal stili
22	bsClear	cho'tkaning ko'rinmaslik stili
23	bsCross	cho'tkaning panjarasimon stili
24	bsDiagcross	cho'tkaning diagonal bo'ylab panjara stili
25	bsFDiagonal	cho'tkaning asosiy diagonal stili
26	bsHorizontal	cho'tkaning gorizontal stili
27	bsSolid	cho'tkaning bir tekis stili
28	bsVertical	cho'tkaning vertikal stili
29	button	boshqarish tugmasi
30	button1click	button1 nomli tugmani chaqirish
31	cansel	bekor qilish
32	canvas	grafik obyektning sirti
33	caption	biror obtektning sarlavhasi
34	case	Paskal dasturidagi tanlash operatori
35	CheckBox	Delphida bayroqcha obyekt - tekshirish qutisi
36	Checked	checkBox ning asosiy xossasi bo'lib, 0 yoki 1 qiymatini qabul qiladi
37	clAqua	Delphida havorang
38	clBlack	qorarang
39	clBlue	ko'k rang
40	clBrawn	jigar rang
41	clear	tozalash
42	clGreen	yashil rang
43	clGrey	kulrang
44	close	yopmoq
45	clRed	qizil rang
46	clSilver	kumush rang
47	clWhite	oq rang
48	clYellow	sariq rang
49	color	rang
50	column	ustun

139	Samples	SpinEdit obyektining namunalalar jildi
140	save	saqlash
141	save to	matni fayl formatida saqlab qo'yish
142	Search	Delphining qidiruv menyusi
143	Shape	Delphida shakllar bilan ishlash
144	ShowMessage	oynaga xabar yozish
145	SpinEdit	butun sonlarni kiritish maydonchasi
146	start	boshlash
147	stop	to'xtash
148	StrToFloat	matn satrini haqiqiy songa o'tkazish
149	StrToInt	matn satrini butun songa o'tkazish
150	taymer	vaqtni korsatish
151	then	u holda
152	time	vaqtni korsatish
153	Timer	vaqt o'rnatish obyekti
154	Times New Roman	shrift nomi
155	TimetoStr	timer obyektining xossasi bo'lib, vaqt turidan matn satri matniga o'tish
156	Tools	Delphining menyu nomi(jihozlar)
157	translyator	dastur matnini kompyuter tiliga o'girish
158	true	mantiqiy rost qiymat, " 1"
159	Turbo Paskal	dasturlash tili
160	var	o'zgaruvchilarni tavsiflash
161	View	Delphining menyu nomi(ko'rinish)
162	virus	kompyuter dasturlarini ishdan chiqaruvchi maxsus yozilgan dastur
163	Visible	boshqarish obyektining ko'rinadigan xossasi
164	Visual Basic	dasturlash tili
165	\$FF0000	ko'k rang
166	\$0000FF	qizil rang
167	\$00FF00	yashil rang
168	\$00FFFF	sariq rang
169	\$BBGGRR	BB(ko'k), GG(yashil), RR(qizil) rang
170	\$FF00FF	pushti rang

MUHOKAMA

Biz ushbu maqolada zamonaviy usulda korpus yaratish va u orqali terminologik lug'at yaratish jarayonini ko'rib chiqdik.

Korpus – muayyan tilning o'ziga xos xususiyati va variantlarini aks ettiruvchi bir necha belgi asosida tanlab olingan elektron shakldagi matn parchalari, lingvistik tadqiqot uchun asos vazifasini o'taydigan tizim[7]. Ilm-fan va texnologiya jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda har bir mutaxassis axborot kommunikatsiyasi vositalaridan va zamonaviy dasturlardan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart. Masalan, adabiyotshunos matnlarni tahlil qilishi, katta korpuslar asosida xulosaga ega bo'lish[4], badiiy asarlarning o'xshashligini aniqlash[3,5] aniqlash yoki boshqa turdagi tadqiqotlar ustida ishlashiga to'g'ri keladi. Ana shunday holatda, ushbu maqolada ko'rsatilgan usuldan foydalanib, korpus yaratishi maqsadga muvofiqdir. Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida korpus va lug'at yaratishning dasturlash tillari orqali yaratish usullari mavjud. Lekin, dasturlash tillarini dasturchilardan boshqa soha mutaxassslari qo'llay olmasligi

mumkin. Shuning uchun ushbu maqolada ko'rsatilgan texnologiya asosida korpus va lug'at yaratish barcha mutaxassislar uchun tushunarli va oson deb hisoblaymiz.

XULOSA

Bugungi kunda ilm-fan, tarix, adabiyot, horijiy tillarni o'rganish va boshqa bir qator sohalarda korpus lingvistikasiga asoslangan holda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada korpus yaratish texnologiyasi barcha uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Sketch Engine – til o'rganish va korpus yaratish uchun eng yaxshi vosita hisoblanadi. Uning algoritmlari tilda milliardlab so'zlardan iborat (matn korpusi) haqiqiy matnlarni tahlil qiladi. Sketch Enginedan tilshunoslar, leksikograflar, tarjimonlar, talabalar va o'qituvchilar foydalanadi. Bu butun dunyodagi noshirlar, universitetlar, tarjima agentliklari va milliy til institutlari uchun birinchi tanlov yechimidir. Sketch Engine 90 dan ortiq tilda 600 ta foydalanishga tayyor korpusni o'z ichiga oladi, ularning har biri 60 milliard so'zgacha bo'lgan hajmga ega bo'lib, tilning haqiqiy namunasini taqdim etadi.

Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilarining Informatika va axborot texnologiya darsligi asosida terminologik lug'at yaratish masalasi ko'rib chiqildi. Bu lug'atni yaratishda Sketch Engine online platformasidan foydalanildi. Bu dastur orqali 10588 ta so'zdan va 2593 ta unikal so'zdan iborat bo'lgan elektron korpusga erishildi.

Dars jarayonida o'quvchilarning terminologik lug'atlar bilan ishlashi ularga mavzuni yaxshi o'zlashtirishida muhim omil hisoblanadi.

Maqola mualliflari terminologik lug'at yaratish jarayonini Informatika darsligi misolida to'liq ko'rib chiqdi. Barcha soha mutaxassislari biz taklif qilgan usuldan foydalansalar, albatta ular samarali natijalarga erishishiga ishonch bildiramiz.

REFERENCES

1. Taylaqov N.I., Axmedov.A.B., Pardayeva.M.D., Abdug'aniyev.A.A., Mirsanov.U.M. Informatika va axborot texnologiyalari. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. "EXTREMUM - PRESS" nashriyoti. Toshkent 2017.
2. Shahlo Abdimurod qizi Abdisalomova "Tilshunoslik terminlarining shakliy strukturasi tahlili". Academic research in educational sciences. VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021
3. Akhmedovich K. M., Beknazarovna S. S. METHODS OF CHECKING THE GIVEN LITERATURE ON THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF SCHOOLCHILDREN.



4. Madatov K., Bekchanov S., Vičič J. Uzbek text summarization based on TF-IDF //arXiv preprint arXiv:2303.00461. – 2023
5. Madatov S. M. X., Matlatipov S. Kosinus o'xshahshlik va uning o'zbek tili matnlariga tatbiqi haqida //O'zMU xabarlari. – 2016. – T. 2. – №. 1.
6. <https://fayllar.org/o'zbek-tilshunosligi-kafedrasi.html>
7. <http://uzschoolcorpara.uz/>
8. <https://kitob.uz/>
9. <https://www.sketchengine.eu/>

